XALQ DEPUTATLARI PAYARIQ TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2023 - yil 15 - fevral VI-77-30-7-100-K/23 Payariq tumani hokimligi

Payariq tumani hududidagi geografik obyektlarni nomlash to‘g‘risida

Tumandagi bir-birini takrorlovchi qabristonlar, istirohat bog‘lari, ziyoratgohlar va xotira maydonini nomlash, jumladan, joylarning qadimiy nomlarini tiklash yuzasidan tushgan takliflar ko‘rib chiqildi. Mazkur takliflar atroflicha muhokama qilinib, geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi tomonidan qabristonlarni qayta nomlash, istirohat bog‘lari, ziyoratgohlar va xotira maydonini nomlash to‘g‘risida taqdim etilgan xulosalar ma’lumot uchun qabul qilinsin.

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011-y., 41-son, 448-modda) va Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli Qarori (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012-y., 41-42-son, 483-modda), tuman komissiyasi takliflari hamda 2022-yil 21-dekabrdagi 08-11449-sonli, 2022-yil 23-dekabrdagi 08-11572-sonli ekspertiza xulosalarini inobatga olib, xalq deputatlari tuman Kengashining VI chaqiriq, yetmish yettinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Payariq tumani hokimi Z.Ergashevning 2023-yil 17-yanvardagi 01-01-163-sonli xati hamda Respublika toponimika xizmatining 2022-yil 21-dekabrdagi 08-11449-sonli, 2022-yil 23-dekabrdagi 08-11572-sonli ekspertiza xulosalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Payariq tumanidagi qabristonlarning nomlari ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq, istirohat bog‘lari, ziyoratgohlar va xotira maydonini nomlari 2-ilovaga mavofiq tasdiqlansin.

3. Geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish bo‘yicha tuman komissiyasi (J.Abilov)ga nom berilgan va nomi o‘zgartirilgan qabristonlar, istirohat bog‘lari, ziyoratgohlar va xotira maydoni peshlavhalarini bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

4. Belgilansinki, geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarini moliyalashtirish mahalliy byudjet mablag‘lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

5. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari (D.Hamidov) qarorni “Sampayariq.uz” rasmiy veb-saytiga rasman e’lon qilsin hamda “Payariq hayoti” gazetasi bosh muharriri (A.Tavboyev) “Payariq hayoti” gazetasiga joylashtirish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qaror rasmiy manbalarda e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, aloqa, kommunal xo‘jaligi masalalari va aholiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha doimiy komissiya raisi (A.Tavboyev) hamda tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi (J.Abilov)larning zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **J. Axunov**

Xalq deputatlari Payariq tuman
Kengashining
2023 yil 15 fevraldagi
VI-77-30-7-100-K/23-son
qaroriga
1-ilova

Payariq tumanidagi qabristonlar nomlari

RO‘YXATI

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni, MFY nomi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1	Qabriston	Farovon	Nomsiz	Katalas	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
2	Qabriston	Birlashuv	Nomsiz	Maxbubxon Hoshimxo‘ja	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
3	Qabriston	Yangiobod	Nomsiz	Shegarboy	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
4	Qabriston	Boshqo‘rg‘on	Nomsiz	Muhammadi-1	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
5	Qabriston	Boshqo‘rg‘on	Nomsiz	Muhammadi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
6	Qabriston	Xosa	Nomsiz	Muhammad ota	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
7	Qabriston	Boshcho‘rosh	Nomsiz	Dunyosoy	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
8	Qabriston	Juvozxona	Nomsiz	Oqchelak-Juvozxona	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
9	Qabriston	Istiqlol	Nomsiz	Qo‘zibek ota	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
10	Qabriston	Oqtosh	Nomsiz	Mingchinor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
11	Qabriston	Do‘stlik	Nomsiz	Quvondiq ota	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
12	Qabriston	Do‘stlik	Nomsiz	Abdujalil ota	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
13	Qabriston	Ko‘lto‘sin	Nomsiz	Ahmad ota	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
14	Qabriston	Ko‘lto‘sin	Nomsiz	Qodir bobo	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq

15	Qabriston	Ko‘lto‘sin	Nomsiz	Sultonmurod ota	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
16	Qabriston	Ko‘lto‘sin	Nomsiz	Ko‘l ota	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
17	Qabriston	G‘allakor	Nomsiz	Rahmatlilar	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
18	Qabriston	G‘allakor	Nomsiz	Samandar ota	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
19	Qabriston	G‘allakor	Nomsiz	Bobojon Maxsum	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
20	Qabriston	G‘allakor	Nomsiz	Isoqul bobo	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
21	Qabriston	G‘allakor	Nomsiz	Vali	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
22	Qabriston	Nakurt	Nomsiz	Quris	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
23	Qabriston	Nakurt	Nomsiz	Parondoz	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
24	Qabriston	Nakurt	Nomsiz	Qo‘rg‘on tepa	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
25	Qabriston	Bahor	Nomsiz	Qarqarali	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
26	Qabriston	Bahor	Nomsiz	Sariq to‘nli ota	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
27	Qabriston	Qumchuq	Nomsiz	Qumchuq	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
28	Qabriston	Bobur	Nomsiz	Said Nurmuxammad ota	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
29	Qabriston	Tomoyrot	Nomsiz	Gulijannat	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
30	Qabriston	Tomoyrot	Nomsiz	Cho‘michli	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
31	Qabriston	Navro‘z	Nomsiz	Nurli buloq	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
32	Qabriston	Choshtepa	Nomsiz	Chillamozor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
33	Qabriston	Choshtepa	Nomsiz	Azimxon bobo	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
34	Qabriston	Zarafshon	Nomsiz	To‘tal Hakim ota	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
35	Qabriston	Oqqo‘rg‘on	Nomsiz	Shaqir ota	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq

36	Qabriston	Nakurt	Nomsiz	Qo‘shsoy	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
37	Qabriston	Maniobod	Nomsiz	Maniobod	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq

Xalq deputatlari Payariq tuman
Kengashining
2023 yil 15 fevraldagi
VI-77-30-7-100-K/23-son
qaroriga
2-ilova

Payariq tumanidagi istirohat bo‘g‘lari, ziyoratgohlar va xotira maydoni nomlari

RO‘YXATI

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni, MFY nomi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1	Istirohat bog‘i	Go‘zal	Nomsiz	Payariq yoshlar bog‘i	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
2	Istirohat bog‘i	Qumchuq	Nomsiz	Chelak yoshlar bog‘i	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
3	Ziyoratgoh	X.Ismoil	Imom al-Buxoriy	Imom al-Buxoriy	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
4	Ziyoratgoh	G‘oyibota	G‘oyibota	G‘oyibota	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
5	Xotira maydoni	Javshar ota	Nomsiz	Xotira maydoni	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq